

## EMULSIYALANGAN IPLARDAN OLINGAN TO‘QIMALARNING TEXNOLOGIK KO‘RSATKICHLARINING O‘ZGARISHI

*prof.*

**T.A.Ochilov**

*Toshkent to ‘qimachilik va yengil sanoat instituti  
kat.o‘q.*

**H.I.Yodgorova**

*Jizzax politexnika instituti  
dotsent.*

**M.R.Atanafasov**

*Toshkent to ‘qimachilik va yengil sanoat instituti  
talaba.*

**M.R. Rixsibayeva**

**I.R. Rixsiboyev**

*Toshkent to ‘qimachilik va yengil sanoat instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro shahridagi “AL-HAKIM PLYUS” MCHJ korxonasida turli tola va ikkilamchi material resurslari aralashmasidan olingan to‘qimalarning texnologik ko‘rsatkichlari aniqlandi

**Kalit so‘zlari:** zichligi, yuza zichligi, notekis to‘qima, zichligi bo‘yicha bir tekis to‘qima, uzilish kuchi, havo o‘tkazuvchanligi va ishqalanishga chidamliligi

## ИЗМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТКАНЕЙ ИЗ ЭМУЛЬСИРОВАННОЙ ПРЯЖИ

**Аннотация:** В данной статье определены технологические показатели тканей, полученных из смеси различных волокон и вторичных материальных ресурсов на предприятии ООО «АЛЬ-ХАКИМ ПЛЮС» в Бухаре

**Ключевые слова:** плотность, поверхностная плотность, неравномерная текстура, равномерная текстура плотности, прочность на разрыв, воздухопроницаемость и стойкость кстиранию

## CHANGES IN TECHNOLOGICAL INDICATORS OF FABRICS FROM EMULSIATED YARN

**Abstract:** This article determines the technological indicators of fabrics obtained from a mixture of various fibers and secondary material resources at the AL-HAKIM PLUS LLC enterprise in Bukhara

**Key words:** density, area density, uneven texture, uniform density texture, tensile strength, breathability and abrasion resistance

## KIRISH

Respublikada tikuv va trikotaj sanoatida ikkilamchi material resurslarini qayta ishlashga moddiy va xomashyo, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni maksimal darajada jalg etish maqsadida yangi texnologik usullar, texnologiyalarni joriy etish, mavjud usul va qurilmalarni takomillashtirish katta ahamiyatga egadir. Bu, ayniqsa, tikuvchilik va trikotaj sanoatidagi yirik korxonalar faoliyati to'xtatilib, asosan kichik, xususiy korxonalar tashkil etayotgan, ular uchun ekologik toza chiqindilarni qayta ishlash uchun qimmat xorijiy uskunalarini xarid qilishning imkonini bo'lmasligi hozirgi davrga to'g'ri keldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda barcha yengil sanoat korxonalarida to'qimachilik chiqindilarini hosil bo'lmoqda. Bunday chiqindilar juda ko'p miqdorda hosil bo'lib, tayyorlov va qayta ishlash korxonalari tomonidan qabul qilinmaydi, balki utilizatsiyaga olib chiqiladi, bu esa mamlakatning ekologik holatini yomonlashtiradi. Shu sababli, to'qimachilik chiqindilaridan samarali foydalangan holda texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishdan iborat muhim ilmiy-texnik muammo paydo bo'ladi.

Biz inson iste'molchi bo'lgan jamiyatda yashayapmiz. Har kuni juda ko'plab miqdorda axlatni ko'chaga chiqarib tashlaymiz. Turmush darajasi bilan birga iste'mol hajmi doimiy ravishda oshib borayotganligi sababli, ikkilamchi material resurslari miqdori har yili ortib bormoqda. Shu sababli, bugungi kunda sivilizatsiya oldida turgan eng muhim muammolardan biri, bu maishiy ikkilamchi material resurslarini yo'q qilish muammosidir, chunki asosiy ko'zlangan maqsad bu insoniyotni zararli omillardan himoya qilishdir. Ishlab chiqarish ikkilamchi material resurslarini qayta ishlash imkoniyati nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan, balki ikkilamchi material resurslari arzon bo'lib, iqtisodiy foyda tomonidan dolzarb hisoblanadi.

Tikuvchilik va trikotaj sanoati chiqindilarini qayta ishlashning takomillashtirilgan usullari va uskunalarini ishlab chiqish, xomashyodan maksimal darajada foydalanish hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamiz tikuv-trikotaj sanoatida ham ikkilamchi material resurslari miqdori keskin ortib bormoqda. Oxirgi 5 yil ichida bu ikkilamchi material resurslarini qayta ishlaydigan va undan faqatgina texnik maqsadlarda ishlatiladigan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi.

To'qimalarning tuzilishi tanda va arqoq iplarining o'zaro o'riliishi va aloqasi bilan belgilanadi. To'qimalarning tashqi ko'rinishi, xossalari va nimaga ishlatilishi uning tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

To'qimalarning tuzilishini ifodalovchi ko'rsatkichlaridan biri zichligi bo'lsa, ikkinchisi ularning o'rilihidir. To'qimaning zichligi uning uzunlik birligiga, odatda, 100 mm ga to'g'ri keladigan iplar soni bilan belgilanadi. Agar to'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichligi bir-biridan farq qilsa bunday to'qimalar zichligi notekis to'qima deb ataladi. Bir-biriga teng bo'lsa, zichligi bir tekis to'qima deb ataladi. Odatda to'qimalarda tanda bo'yicha zichligi arqoq bo'yicha zichligiga qaraganda kattaroq bo'ladi. Lekin, ba'zi to'qimalarda aksincha ham bo'ladi.

To‘qimalarning zichligi keng miqyosda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bir xil zichlikdagi to‘qimalarning iplari qancha ingichka bo‘lsa, to‘qima shuncha siyrak bo‘ladi, ya’ni uning iplar bilan to‘ldirilishi kam bo‘ladi.

## NATIJALAR

To‘qimalarning zichligi ularni ishlatilish maqsadlariga qarab turlicha bo‘ladi. Masalan, to‘qimaning zichligi ortishi bilan uning uzilish kuchi, havo o‘tkazuvchanligi va ishqalanishga chidamliligi ortib ketadi. Undan tashqari, to‘qimaning tola tarkibi ham uning xususiyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ikkilamchi material resurslari tarkibi turlicha bo‘lgan iplardan olingan to‘qimalarning texnologik ko‘rsatkichlari tadqiq etildi va olingan sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

### 1-jadval

Maxsus kiyimbop uchun mo‘ljallangan to‘qimaning texnologik ko‘rsatkichlariga turli tarkibli tola va ikkilamchi material resurslari aralashmasining ta’siri

t/r	To‘qimaning tola tarkibi	Zichligi, n/dm		Yuza zichligi, g/m <sup>2</sup>	ГОСТ Р 57877-2017. Ткани для специальной одежды. Общие технические условия	Farqi,%
		танды	аркок			
1.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% viskoza tolsasi+6,6% nitron tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	166,3	180-200	-7,8
2.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% lavsan tolsasi+6,6% nitron tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	165,8	180-200	-7,9
3.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% nitron tolsasi+6,6% paxta tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	166,5	180-200	-7,8
4.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% lavsan tolsasi+6,6% viskoza tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	165,6	180-200	-7,9
5.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% viskoza tolsasi+6,6% lavsan tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	166,0	180-200	-7,7
6.	Tanda ipi 100% paxta tolasidan va arqoq ipi uchun 66,4% paxta tolsi bilan 27,0% paxta tolsasi+6,6% viskoza tolali ikkilamchi material resurslari	200	170	166,4	180-200	-7,8

## XULOSA

To‘qimaning zichligi muhim ahamiyatga egadir. To‘qimada iplar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning havo o‘tkazuvchanligi past bo‘ladi, uzilish kuchi va ishqalanishga chidamliligi ortadi. To‘qimalarning zichligi qaysi mavsum uchun mo‘ljallanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, barcha variantdagi to‘qimalarning tanda va arqoq yo‘nalishi bo‘yicha zichligi bir xil ekanligi aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yodgorova Hilola Isroilovna, Shumkarova Shamsiya Pulatovna, Yuldasheva Mavluda Turamuradovna, Ochilov Tulkin Ashurovich. The Influence of the Mixture of Fiber Composition and Secondary Material Resources on the Technological and Mechanical Properties of Fabric Intended for Special Clothing. Middle european scientific bulletin. P.78.

2. Yodgorova Hilola Isroilovna, Ochilov Tulkin Ashurovich, Shumkarova Shamsiya Pulatovna, Yuldasheva Mavluda Turamuradovna. Assessment of the Quality Indicators of Threads Obtained by an Improved Method from Mixtures of Fiber and Secondary Material Resources with Different Compositions. European multidisciplinary journal of modern science. Volume: 22 | Sep-2023. P.23.

3. Patkhullayev Sarvarjon Ubaydulla ogli, Ochilov Tulkin Ashurovich, Yodgorova Hilola Isroilovna, Shumkarova Shamsiya Pulatovna, Yuldasheva Mavluda Turamuradovna. Complex Assessment of Quality Indicators of Fabrics Obtained from a Mixture of Fiber and Secondary Material Resources of Different Composition. International journal on orange technology. Volume: 5 Issue: 12 | Dec 2023. P.1.

4. Patkhullayev Sarvarjon Ubaydulla ogli, Yodgorova Hilola Isroilovna, Ochilov Tulkin Ashurovich, Shumkarova Shamsiya Pulatovna, Yuldasheva Mavluda Turamuradovna. Change of Physical-Mechanical Properties of Fabrics Obtained From the Mixture of Fiber and Secondary Material Resources of Different Composition. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. Volume 2 | No 12 | Dec-2023. P.1.

5. Atanafasov M.R., Ochilov T.A., Usmonova Sh.A., Yuldashyev J.N., Hakimov Sh.H. Influence of Cotton Fiber of Different Composition and Secondary Material Resources on Single-Cycle Elongation Deformation of Yarns // International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology – India, Volume 11, Issue 2, February 2022. pp.1135-1137.

6. Atanafasov Muhiddin Rakhmonovich “Iplarning sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi” Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523 Volume 2, Issue 4, 2023

7. Atanafasov Muhiddin Rakhmonovich, Ochilov To’lqin Ashurovich, Rahimjonov Husanboy Rahimjonovich “Turli tarkibli va qayta ishlangan tolalar aralashmasidan olingan piltaning notekislik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi” Innovative Development in Educational Activities, Volume 2, Issue 4, ISSN: 2181-3523, 2023

8. Atanafasov Muhiddin Rahmonovich.,Yodgorova Hilola Isroilovna., Ochilov To’lqin Ashurovich., Ismoilov Doniyorbek Abdulxamidovich “To‘qimalarning kirishishi va bo‘yoq mustahkamligining o‘zgarishiga turli tola tarkibli va ikkilamchi material resurslarining ta’siri” Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523, VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

9. Ochilov To’lqin Ashurovich., Yodgorova Hilola Isroilovna., Atanafasov Muhiddin Rahmonovich., Ismoilov Doniyorbek Abdulxamidovich “Turli tarkibli tola va ikkilamchi material resurslari aralashmasidan olingan to‘qimalarning deformatsion xossalaring o‘zgarishi” Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523, VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

10. Ochilov Tulkin Ashurovich., Mengnarov Shuxrat Soatovich., Atanafasov Muhiddin Rahmonovich., Ismoilov Doniyorbek Abdulkhamidovich “Complex evaluation and justification based on physicalmechanical properties of gases” Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523, VOLUME 3, ISSUE 1, 2024